

**TALABALARINING EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI**

Valiyev Zufarjon Abdurahmonovich

*Kimyo texnologiya fakulteti "Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasini
o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarining ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda oliy ta'lim o'quv yurtlarining ro'li yuqori ekanligi va atrof-muhit va organiizmlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish orqali inson salomatligini yaxshilash muximligi yoritilgan.

Kalit so'zlar

Konserogen, ekologik tarbiyalangan, ekologik ta'lim, ekologik bilimlar, globallashuv, jamoatchilik ekologiyasi

**ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ
СТУДЕНТОВ**

Валиев Zufardjon Абдурахмонович

*Преподаватель кафедры «Технология переработки нефти и нефтегазодобычи»
факультета химической технологии.*

Аннотация

В данной статье подчеркивается высокая роль высших учебных заведений в совершенствовании механизмов развития экологических компетенций студентов и важность улучшения здоровья человека путем изучения взаимосвязи окружающей среды и организмов.

Ключевые слова

Канцероген, экологическое воспитанный, экологическое образование, экологические знания, глобализация, общественная экология

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'
ECOLOGICAL COMPETENCES**

Valiyev Zufarjon Abdurakhmonovich

*Teacher of the Department of "Oil and Oil and Gas Processing Technology" of the
Faculty of Chemical Technology*

Abstract

This article highlights the high role of higher education institutions in improving the mechanisms of development of students' ecological competences and the importance of improving human health by studying the relationship between the environment and organisms.

Key words

Carcinogen, Ecological brought up, ecological education, ecological knowledge, globalization, public ecology

Talabalarni ekologik vaziyatga doir taqqoslash ma'lumotlari bilan qurollantirish maqsadga muvofiqdir. Ekologlarning ma'lumotlariga qaraganda dunyoda 2,1 mlrd. kishi toza ichimlik suvga ega emas. Tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, rivojlanayotgan davlatlar aholisi orasida uchrayotgan kasalliklarning 10,0% ichimlik suvining ifloslanishi yoki uning etishmasligi oqibatida vujudga kelmoqda. Bunday ekologik muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarning qishloq joylari aholisi orasida ko'proq sodir bo'layapti, chunki ularning 29,0% toza ichimlik suvi ichmaydi, 62,0% aholining turmush sharoiti sanitariya holati talablariga javob bermaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlarining bayonotida er sharida odamlar orasida sodir bo'layotgan kasalliklarning 25-30,0% ekologik ahvolning chigallashuvi bilan bog'liqdir.

Ekologik vaziyatlarni taqqoslashga oid ma'lumotlar

No	Ekologik vaziyatga doir taqqoslash	Ko'rsatkich
1.	Dunyo bo'yicha toza ichimlik suviga ega bo'lmagan odamlar soni	1,1 mlrd. kishi
2.	Rivojlanayotgan davlatlar aholisi orasida uchrayotgan kasalliklar	10,0%
3.	Toza ichimlik suvi ichmaydigan qishloq aholisi	29,0%
4.	Turmush sharoiti sanitariya holati talablariga javob bermaydi aholi	62,0%
5.	Er sharida odamlar orasida sodir bo'layotgan kasalliklar	25-30,0%
6.	Kanalizatsiyadan foydalanmaydigan aholi	2,4 mlrd. kishi
7.	Murakkab sanitariya holati sharoitida istiqomat qiladigan shahar	40,0%

Ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko'ra, insonning tabiatga nisbatan antropogen faoliyati natijasida hududlar ekologiyasiga salbiy ta'siri muntazam oshib borayapti. Ishlab chiqarish texnologiyalaridagi kamchiliklar ekologik halokatlar sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Turli texnologik falokatlar soni ko'paymoqda. Insonlar ekologik farovonligini yaxshilash zaruriyati, atrof-muhitni asrashi va unga nisbatan ongli munosabatda bo'lish muhimligi belgilandi. Hozirgi ekologik vaziyat uning genofondiga salbiy ta'siri kuchayib borayotganligini ko'rsatmoqda, ya'ni iste'mol tovarlari tarkibida konserogen moddalarning ko'payganligi ham inson faoliyatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Talabalarni ekologik kompetensiyalarining rivojlanishi ta'limiy mexanizmlar bilan hamohangdir. Jamiyat barqaror taraqqiyotiga xalaqit beradigan faktorlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ozon qatlaminin emirilishi, o'rmonlarning kamayishi,

sahrolar hajmining kengayib ketayotganligi, tuproq eroziyasi, shoʻrlanishi va er hosildorligining pasayishi, suv resurslarining ifloslanishi, okean suvlarining koʻtarilishi, bioxilma-xillikning kamayib ketishi va atmosferada parnik gazlar konsentratsiyasining oʻsib borayotganligi kuzatilmoqda. Talabalar bunday oqibatlarni tahlil qilishi, mazmuni, mohiyatiga tushunib olishlari umumiy bilim saviyasini, ekologik tayyorgarligini oshiradi. Oʻzbekistonda uzluksiz taʼlimdagi islohotlar natijasida mavjud ekologik ahvolni yaxshilash uchun qator ishlar va tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xalqaro hamkorlik yoʻlga qoʻyildi. Shu jumladan, talabalarnin ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy, amaliy jihatlari, mazmuni va mohiyatini ilmiy asoslashga alohida ahamiyat berildi.

Mamlakatimizda taʼlimni modernizatsiyalash orqali tabiat-inson-jamiyat munosabatlarining uygʻunlashuvini taʼminlash uchun chora-tadbirlar belgilandi. Bu oʻz navbatida talabalarining ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim faktorlar vazifasini bajaradi. Yurtimizda ekologik ahvolning yaxshilanishi va insonlar sogʻligining mustahkamlanishida, yoshlarda ekologik tarbiyalanganlik, ekologik kompetensiyani rivojlantirishda fizkultura va sport sohalari ham oʻz ifodasini topdi. Natijada mamlakatimizda 2005-2011 yillarda sogʻlom bolalarning soni 52,7%dan 62,9%ga oʻsdi, surunkali kasalliklar bilan ogʻriganlar soni sezilarli darajada kamaydi. Oʻzbekiston Respublikasi 2011 yilda xalqaro “Bolalarni qutqarish” tashkilotining tuzgan reytingiga binoan bolalar sogʻligi haqida gʻamxoʻrlik qilayotgan mamlakatlar orasida birinchi oʻnlikdan joy oldi. 2004-2011 yillarda 1500 zamonaviy bolalar sport inshootlari ishga tushirildi.

Mamlakatimiz mustaqilligi davrida atrof-muhitni asrashning huquqiy asosi hisoblangan ekologiyaga doir qonunlar qabul qilindi va ekologiyaga oid masalalarni qamrab olgan qonun osti hujjatlari amaliyotga joriy etildi. Bu oʻz navbatida talabalrning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishda ijobiy taʼsirga ega boʻlgan omillar hisoblanadi. Taʼkidlash lozimki, mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni taʼminlash uchun ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy, huquqiy mazmundagi, ilmiy asoslangan qator tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu sohaga xalqaro tashkilotlarning eʼtibori va moliyaviy hamkorligi ham jalb qilindi. Bunday saʼy-harakatlar natijasida atmosfera havosining ifloslanishi kamaydi. Aholini ichimlik suvi bilan taʼminlash yaxshilandi. Qishloq xoʻjaligida pestitsidlarni ishlatish qisqartirildi. Ekin maydonlari tarkibiga oʻzgartirishlar kiritildi. Natijada shahar va qishloqlarda inson yashashi, mehnat qilishi uchun shart-sharoitlar tubdan yaxshilandi.

Eng muhim tadbirlardan biri taʼlimdagi islohotlarning samarasi oʻlaroq yoshlarning jumladan, talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan tarbiyaviy ishlar bajarildi. Taʼlim jarayoni xalqaro standartlar darajasida tashkil qilindi. Pedagogik oliy oʻquv yurtlari taʼlim dasturlariga oʻzgartirishlar kiritildi. Oʻquv rejalarda ekologik bilimlarni berishga qaratilgan fanlar soni koʻpaytirildi.

Bevosita o'qitilayotgan fanlar mazmuni ekologik ta'limotlar integratsiyalashuvi asosida takomillashtirildi. Atrof-muhit himoyasi zaruriyatini va maqsadini ochib beradigan materiallar, o'quv qo'llanmalar hamda darsliklar sahifalaridan o'rin oldi.

Oliy o'quv yurtlarida insoniyatning yashashi, uning kelajagi atrof-muhit bilan bog'liqligini singdirish va targ'ib etish maqsadida o'tkazilayotgan ilmiy seminarlar, tarbiyaviy yo'nalishdagi suhbatlar, ilmiy konferensiya dasturlari va to'garaklarning faoliyati bo'lajak pedagoglarning hayotidan joy oldi. Ekologik vaziyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, xalqaro qirralari, mutaxassislar ishtirokida ilmiy muhokamalarni o'tkazish amaliyoti boshlandi. Masalaning muhim tomonlaridan biri ushbu anjumanlarga O'zbekiston ekologik partiyasi qo'llab-quvvatlovchi sifatida talabalar, tarbiyachi mutaxassislar ham keng jalb qilindi. Atrof-muhitni asrash, flora va faunani saqlash masalalari talabalar bilan darsdan tashqari sharoitda jamoatchilik vakillari bilan o'tkaziladigan ekologik tadbirlar rejasiga kiritildi. Ayniqsa, ushbu ilmiy, ijtimoiy ahamiyatga mansub tadbirlar O'zbekiston ekologik partiyasi jamoat, nodavlat va notijorat tashkilotlari vakillari bilan hamkorlikda o'tkazilib borildi. Ekologik mazmundagi tadbirlarning natijalari yoshlar bilan birgalikda muhokama qilinganligi talabalarda ekologik kompetensiyalarning rivojlanishida yuqori samara berdi.

Talabalarga bevosita kelajakda o'zi faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan soxalarda ekologik tadbirlar o'tkazishning maqsadi, mazmuni va ahamiyatini tasavvur etish imkoniyatini berdi. Shuningdek, talabalarga regional ekologiyaning turli jabhalarini o'z ichiga olgan mustaqil ilmiy tadqiqot mavzulari, referat ishlanmasi, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishi sifatida tadqiq qilishga berilishi ham ular tafakkurida ekologik bilimlarning kengayishiga olib keladi. Pedagogikaning turdosh fanlari bo'yicha mustaqil ishlarni tayyorlashda, bajarilayotgan kurs ishlarida, ya'ni ekologiyaga oid mavzular ustida ish olib borishda talabalar mahalliy materiallardan ham foydalanishmoqda. O'quv materiallarni tobora globallashtirayotgan ekologik masalalar bilan taqqoslab mustaqil xulosalarga kelishmoqda. Talaba ilmiy rahbari tomonidan ekologiyaga oid mavzuni mustaqil o'rganishi uchun ilmiy seminarda, dumaloq stol atrofidagi ekologiyaga bag'ishlangan davra suhbatida ishtirok etishi, bahs va munozaraga taklif qilinishi, ularda ushbu ijtimoiy masalaga nisbatan katta qiziqish uyg'otadi. Shu bilan birga ekologik muammolar mohiyatini anglashlariga yordam beradi. Natijada talabalarda ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari bajariladi.

Bugungi kunda talabalarining ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muammosi oliy pedagogik ta'lim tizimini boshqarish va tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik jarayonni boshqarish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib, uni takomillashtirish zaruriyati uzluksiz ta'limning dolzarb muammosi bo'lib hisoblanadi. Ushbu masala oliy pedagogik ta'lim bo'g'inlari, uzluksiz ta'lim rahbarlari, tashkilotchilarning va pedagogika sohasida

faoliyat olib borayotgan olimlar, ilmiy xodimlarning doimiy diqqat-e'tiboridagi masaladir.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarining faoliyati ta'lim tarkibidagi rahbarlar va mutaxassis pedagoglarning o'z burchlarini sifatli bajarishi, o'quv tarbiya ishlarini samarali, oqilona tashkil etishidir. Jumladan, bajarilishi rejalashtirilgan masalalar, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarning aniq-ravshan belgilanishi va vazifalarning to'g'ri taqsimlanishi hisoblanadi. Shuningdek, ekologik ta'lim-tarbiya ishini mohirlik bilan tezkor bir-biriga muvofiqlashtirib olib borishiga bog'liqdir.

Uzluksiz ta'limning modernizatsiyalashuvi sharoitida oliy pedagogik ta'limni boshqarish muntazam sur'atda takomillashtirilishni talab etadigan faoliyatdir. Ta'kidlash lozimki, oliy pedagogik ta'lim muassasasi ichki tuzilishga ega bo'lgan mexanizmdir. Uning har bir qismi faqat tartibga, ijodiy va fan yutuqlariga tayanganida, o'quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarganida yuqori natijalarga erishadi. Vaholanki, yuqori natijalar talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmining takomillashuviga asos bo'ladi.

Pedagogika fani jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ma'lum sohasini, uning taraqqiyoti, yoshlar tarbiyasiga oid qonuniyatlarini ifodalaydi va tahlil qiladi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta'lim boshqaruvining mukammallashtirilishi, ta'lim sohasidagi tashkilotchilikni takomillashtirish, tarbiyaviy ishlarga aniqlik kiritish, ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalari ishlarini boshqarish va unga rahbarlik qilish masalalarini takomillashtirish zarur. "Ta'lim to'g'risida" qabul qilingan qonun va uning uzluksiz ta'lim tizimida to'liq amalga oshirilishi bilan yanada amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jarayon oliy pedagogik ta'lim tarkibidagi fanlar orqali talabalarga ekologik bilimlarni berish imkoniyatini kengaytirdi.

Islohotlar davomida oliy pedagogik ta'lim muassasalarining metodologik, huquq, moddiy texnika asosining takomillashuviga ham e'tibor berildi. Bu jarayonning davom ettirilishi talabalarda ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning asosiy natijalari quyidagilarda o'z aksini topmoqda:

- 1) milliy tarbiyaning maqsad va vazifalari to'g'risidagi ta'limot muntazam rivojlantirilganda namoyon bo'ldi;
- 2) oliy pedagogik ta'limdagi islohotlar tarbiyaviy ta'limotlarga asoslangan holda olib borildi va takomillashtirildi. Bu jarayon mazmuni tarkibida talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirish g'oyasi va uning amaliyotdagi holatida o'z aksini topdi.

Ta'limdagi islohotlar ko'lamida talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuniga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya ishini tashkil etish uchun quyidagi mexanizmlarga e'tibor berish maqsadga muvofiqligi aniqlandi:

- o‘quv dasturlari, fanlar bo‘yicha ma‘ruza matnlari mazmuniga ekologik kompetensiya masalasiga doir materiallarning kiritilishi, keng ifoda qilinishi, metodik jihatdan asoslanishi;
- o‘quv xonalarini ekologiyaga oid materiallar bilan jihozlash;
- zamonaviy kompyuter vositalari bilan ta‘minlanishi;
- talabani ekologiyaga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy metodik adabiyotlar va elektron axborotlar majmuasi bilan ta‘minlash;
- talabani ekologiyaga oid didaktik materiallar bilan ta‘minlash;
- auditoriyada inson faoliyati uchun ekologiyaning muhimligini ta‘kidlovchi qulay ijodiy psixologik, ijodiy vaziyatni vujudga keltirish.

Oliy pedagogik ta‘lim muassasa rahbarligi faoliyatining takomillashtirilishi, o‘quv-tarbiya ishlarining modernizatsiyalashuvi uzluksiz ta‘lim talablariga mos ravishda olib borishni talab qiladi. Natijada ta‘lim muassasalaridagi monitoring ishlarini amalga oshirish, talabalarning ekologiyaga oid masalalarni mustaqil o‘rganishlarida muhim manba va vosita rolini bajardi. Ta‘lim muassasasida talabalar pedagogika fanlari doirasida ekologik mavzularda mustaqil ishlarning yuqori ilmiy saviyada tayyorlashni tashkil qilinishi, ekologik bilimlarga doir o‘quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtiradi. Natijada talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omillardan hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta‘lim muassasasidagi ta‘lim-tarbiya jarayoni hozirgi murakkablashayotgan davr axborotlar tizimini, o‘quv muassasasining ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish samaradorligini oshirishni talab qiladi. Bu bevosita talabalarning tarbiyaviy ishlarini yangi talablar asosida tashkil qilishda muhim o‘rin egallaydi. Uning maqsadi bo‘ljajak pedagoglar, mutaxassis o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan ta‘lim-tarbiya ishlarini hozirgi globallashtayotgan, fuqarolik jamiyati rivojlanayotgan davr talablari asosida tashkil qilishdir. Jamiyatning oliy ta‘limga qo‘ygan talablari ilg‘or pedagogik tajribalarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslanishni, ekologik tarbiyani samarali yo‘llar bilan boyitishni va uni yanada takomillashtirishni qamrab oladi.

Oliy pedagogik ta‘lim sohasidagi bo‘ljajak mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar doirasida o‘quv rejalariga o‘zgartishlar kiritishdan iboratdir. Muammoning bunday echimi talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish mazmunida muhim omillardan hisoblanadi.

O‘quv jarayoni yaqin kelajak istiqbolini loyihalashtirish oliy pedagogik ta‘lim mazmunini talablar darajasida tashkil qilishga qaratilgan. Talabani mutaxassis sifatida tayyorlashga mo‘ljallangan oliy ta‘limning umumiy va aniq maqsadi o‘qitiladigan fanlar majmuasini aniqlash, ularni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, o‘quv rejasiga kiritilgan. Har bir fanning mazmuni, o‘quv materiallarining umumiy hajmi,

talabalarning umumiy bandligini e'tiborga olgan holda tashkillashtirish kabi masalalarning hal etilishini o'z ichiga oladi.

Barkamol avlod tarbiyasi vazifasi va talabalarnin ma'naviy yuksalishida, talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonini boshqarish – nafaqat, oliy o'quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan ilmiy jamoalar ishini takomillashtirishni, balki mamlakatimizda fan, adabiyot, san'at, madaniyat va sog'likni saqlash xodimlarining ishtirokini ham o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra oliy pedagogik ta'lim tizimini jahon andozalari talablariga mos sur'atda boshqarish, jamiyatda ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ushbu jabhaning muntazam rivojlanishida, ya'ni talabalar uchun muayyan sharoitlarni yaratishda o'quv muassasasining faoliyatini modellashtirilishi bilan bog'liqdir. Ular: ta'lim-tarbiya ishining yaqin kelajak holatini ilmiy asosda rejalashtirilishi; bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va talabalarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muammosi.

Talabalar ekologik tarbiyasini yuqori darajaga ko'tarish uchun, kafedralarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni, fakultetlardagi tadbirlar bilan muvofiqlashtirish yoki ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishdagi muayyan bosqichlarning bajarilayotganligini ilmiy jihatdan tahlil etish muhim sanaladi. Ushbu tizimning asoslangan ish dasturini, ko'zlangan tadbirlar majmuasini tayyorlash davomida ekologik mazmundagi ilmiy axborotlar bazasidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim tizimida asosiy ko'zlangan maqsad ta'lim va tarbiyaga erishish bo'lib, ushbu vazifa ijrosi muassasa xodimlari zimmasiga yuklatiladi. Shuningdek, bu rahbarlik bo'g'inlaridagi professor-o'qituvchilarning ilmiy pedagogik faoliyati bilan ham bog'liqdir. Shuningdek, ichki nazorat ishlari ilmiy asosda, islohotlarga monand sur'atda tashkil qilingan bo'lsa, ta'lim va tarbiya ishlarida, shu jumladan, talabalarda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish masalasida yuqori darajadagi ko'rsatkichlarga erishiladi. Uzlüksiz ta'limning modernizatsiyalashuvida oliy pedagogik ta'lim fuqarolik jamiyatiga, ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda talabalar ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga e'tibor kuchaytirilib, uning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishiladi. Oliy ta'lim oldiga qo'yilgan asosiy maqsad shaxsining tarbiyasi, yuksak madaniyati, axloqan pok va ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy asoslangan mehnat taqsimoti ta'lim-tarbiya ishidagi muhim omil hisoblanadi. Tabiiyki, bunday ish tartibining mavjudligi tarbiya jarayonining ilmiy asosda, maqsadli, shaxs va mamlakatimiz istiqbolini hisobga olgan holda tashkil qilinishini talab qiladi. Natijada ekologik kompetensiyaga erishgan mutaxassislarni tarbiyalash bilan yakunlanadi. Bunday ilmiy asoslangan tarbiyaviy

ishning amalga oshirilishida ta'lim muassasalari ichki nazoratini takomillashtirish muhim rol o'ynaydi.

Dars jarayonini monitoring qilish tufayli kafedra professor-o'qituvchilarining ma'ruzalari, amaliy mashg'ulot o'tkazishlari va talabalar orasidagi ijodiy hamkorlik yanada kengayadi. Ushbu ilmiy hamkorlik natijasida talabalar tomonidan mustaqil o'rganilishi lozim bo'lgan ekologiyaga oid mavzular ustida mustaqil ishlanadi. Ma'lum ijodiy natijalarga erishiladi. Monitoring ishlarining ko'lami davomida kafedralar huzuridagi talabalar ilmiy to'garaklarining faoliyati bilan keng tanishishni va to'garaklarda talabalarning ishtirokini faollashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyati asosini tashkil qiluvchi, faoliyat turlarini belgilovchi qonunlar, direktiv hujjatlar va qarorlar ta'limni modernizatsiyalashda takomillashtirildi, bu tizim oliy pedagogik ta'lim muassasalari faoliyatini mukammallashtirishda muhim metodologik asos rolini bajarmoqda. Ushbu jarayonning muhim tomoni talabalarda ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilganidir.

Talabalarda ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishda Ekologiyaning nazariy asoslari muxim ahamiyat kasb etidi.

Ekologiyaning nazariy asoslariga, ya'ni, eng avvalo, uning turli talqinlariga murojaat qilamiz. Chunki ular majmui o'rganilayotgan hodisaning «so'z orqali ifodalangan andozasidir». O'zining ilmiy monografiyasida Y.Odum ekologiyaning 7 ta ta'rifini keltiradi va «u har bir kishining kundalik hayoti bilan juda yaqindan aloqada bo'lgan fan sohasiga aylanayotganligini» ta'kidlaydi.

Y.Odum tomonidan aniqlangan ekologiya tushunshasining 7 ta ta'riflari

№	Ekologiya tushunshasining mazmun-mohiyati
1.	[yun. oikos — uy, istiqomatgoh; logos — so'z, tushunsha, ta'limot] bu «o'z uyidagi» izmlar haqidagi fan (so'zning asl etimologiyasi ma'nosida)
2.	(ko'rinsha) organizmlarning yoki organizmlar guruhining ularni o'rab turgan muhitga tan munosabati haqidagi fan sifatida ta'riflaydilar
3.	bu fan tirik organizmlar xamda ular yashaydigan muhitlar o'rtasidagi ta'sirlarni yoritadi
4.	organizmlarning guruhleri o'rtasidagi biologiyasi xamda quruqlikda yashovshi, dengizda yashovshi xamda shushuk suv havzasida yashovshilarning faoliyatining jarayonlari o'rganadi
5.	Agar odamlar tabiatni bir bo'lagi sifatida qaraladigan bo'lsa, ekologiya fani tabiatning shi xamda funksiyalari to'g'risidagi fan bo'lib uning global rivojlanishiga mos
6.	organizmlar xamda tabiiy muhit orasidagi aloqalarning majmui va tarkiban tuzilishlari
7.	bu atrof muhit biologiyasi («uzoq muddatli iste'mol ushun» eng yaxshisi sanaladi)

Y.Odum mana shu ettita ta'rifda to'xtaydi va ularning o'zaro aloqasini, o'zaro munosabatlarini tahlil qiladi. Biz uchun ekologiyaning bu ta'riflaridan har biri amalda bo'lish huquqiga ega, agar, birinchidan, ularda aniqlangan o'zaro munosabatlar xususiyatlari va ikkinchidan, har bir aniq ta'rif muayyan hodisaga butunlay mos

tushsa. Bizning tadqiqotimiz mazmunida ekologiyaning yuqorida ko'rsatilgan ta'riflaridan ikkinshisini ishlatish maqsadga muvofiq. Shunki undan kelib chiqadigan bo'lsak, inson ekologiyasining pedagogikada, ekologik ta'limda va ta'limni ekologiyalashtirishda foydalaniladigan predmetlarini tavsiflash mumkin, albatta, agarda biz organizmning o'rniga quyidagicha tavsiflasak organizm-shaxs, atrof muhitni - tabiiy-ijtimoiy hodisa ko'rinishida tavsiflay olamiz.

Undan tashqari, Y.Odum tizimli ekologiya tushunshasini kiritib, uni ekologiyaga nisbatan tizimli yoki matematik yondashuv sifatida o'rganadi. Shu sababli o'zgaruvchan tizimlar nazariyasining ko'pgina yaxshi ta'riflangan tushunchalarini (masalan, barqaror rivojlanish, salomatlik va b.) ekologiyaga ko'chirish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki talabalarda ekologik kompetensiyalarni oshirish sifatli ta'lim berish orqali amalga oshiriladi. Bu esa tabiatni sevisga, uning resurslariga bo'lgan munosabatlarni yaxshilanishiga, tabiatga extiyotkorona munosabatda bo'lishga erishishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-** "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3775-sonli Qarori. - **O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi**, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son
2. [O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori.](#) - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020 y., 09/20/824/1689-son.
3. Otto S, Evans GW, Moon MJ, Kaiser FG. The development of children's environmental attitude and behavior. Glob Environ Change. 2019;58: 101947 10.1016/j.gloenvcha.2019.101947
4. Makhmudov S.Yu. pedagogical bases of teaching "Safety of life activities" in the conditions of innovative education Science and innovation international scientific journal volume 3 issue 3 28.03.2024 scientists.uz 253-258 b
5. Makhmudov S.Yu. Necessity of teaching the science of "Safety of life activities" in the conditions of innovative education. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 4 30.04.2023 scientists.uz 662-665 b

6. Makhmudov .S.Yu. The relevance of teaching the subject “Safety of life activity” in the conditions of innovative education.Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 4 30.04.2023 scientists.uz 666-670 b
7. Maxmudov.S.Yu. Innovatsion ta’lim sharoitida “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini o’qitishning mazmuni va prinsiplari. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal ISSN 2181-9580, 2023y, 5-son. 459-463 b. (13.00.02;)
8. Maxmudov.S.Yu. Innovatsion ta’lim sharoitida “Hayot faoliyati xavfsizligi” faniga oid didakdik vositalarini qo’lash tamoyili. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal ISSN 2181-9580, 2023y, 7-son. 241-248 b. (13.00.02;)
9. Maxmudov.S.Yu. Innovatsion ta’lim sharoitida “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini hamkorlikda o’qitish texnologiyalari orqali takomillashtirish. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal ISSN 2181-9580, 2023y, 8-son. 277-284 b. (13.00.02;)
10. Maxmudov.S.Yu “Tibbiy bilim asoslari” fani o’quv qo’lanma Farg’ona “CLASSIK ” nashri ISBN:978-9943-8948-8-4 25.10. 2022. “388” sonli.
11. Makhmudov.S.Yu.,// Pedagogical bases of teaching "safety of life activities".Icarhse international conference on advance research in humanities, sciences and education Germany conference <https://confrencea.org> may 10 2023 438-443 b
12. Makhmudov.S.Yu.,// Teaching the subject "safety of life activities" on the basis of pedagogical technologies. Icarhse international conference on advance research in humanities, sciences and education Germany conference <https://confrencea.org> may 10th 2023 443-448 b
13. Maxmudov.S.Yu. “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan elektron qo’lanma. № DGU 17089. - Toshkent: 20.05.2022.
14. Maxmudov.S.Yu. “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan o’slubiy qo’lanma. № DGU 17090. - Toshkent: 20.05.2022.
15. Maxmudov.S.Yu. “Shovqin darajasini hisoblash” № DGU 23039.Toshkent:25.01.2023.
16. Makhmudov.S.Yu.,// Pedagogical bases of teaching "safety of life activities" in the conditions of innovative education. Innovative developments and research in education: a collection scientific works of the international scientific online conference (23rd july, 2023) – canada, ottawa : "cess", 2023. part 19–139 p 16-23 b.
17. Makhmudov.S.Yu, Pedagogical bases of teaching "safety of life activities".Pedagogy: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st June, 2023) –INDIA, New Delhi : "CESS", 2023. Part 10 – 108p.103-110 b